



BADRIDDIN HILOLIYNING “SHOH VA GADO” DOSTONIDA YUSUF (A.S.) OBRAZI

Muallif: Muratova Aziza Kamilovna ¹

Affiliyatsiya: Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU tayanch doktoranti ¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20230421>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Badriddin Hiloliyning “Shoh va gado” dostonida Yusuf (a.s.) obrazi bilan bog‘liq talmehlar va badiiy timsollar tahlil qilinadi. Maqolada dostonning turli fasllarida keltirilgan baytlar qiyosiy-tahlil qilinib, ularning irfoniy va ijtimoiy-axloqiy funksiyalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Badriddin Hiloliy, “Shoh va gado”, Yusuf (a.s.), talmeh, timsol, badiiy tahlil, klassik poetika, irfon.

Badriddin Hiloliyning “Shoh va gado” dostoni Sharq mumtoz adabiyoti an’analarini o‘zida mujassam etgan, majoziy ishq va ijtimoiy-falsafiy mushohadalar qorishmasidan iborat bo‘lgan yetuk asardir. Ushbu tadqiqotda dostonning turli fasllarida tizimli ravishda uchraydigan Yusuf (a.s.) obrazi bilan bog‘liq talmehlar, ularning badiiy-estetik vazifalari hamda muallifning g‘oyaviy maqsadini ochib berishdagi o‘rni tahlil qilinadi.

Adabiyotshunoslikda “Qissasul anbiyo” motivlaridan foydalanish an’anaviy uslub bo‘lsa-da, Hiloliyning ushbu asarida Yusuf (a.s.) shunchaki qiyos vositasi emas, balki asar syujetining mantig‘ini quvvatlovchi, voqealar silsilasiga ma’no yuklovchi tayanch nuqtalar bo‘lib xizmat qiladi. Tadqiqotda matnshunoslik va germeneytik tahlil metodlariga tayanilgan holda, baytlardagi obrazlar tizimi va poetik san’atlar o‘zaro muvofiqlikda o‘rganiladi.

“Shoh va gado” dostonining *“Kecha uzoqlikidin darveshning nola qilg‘oni va so‘nggi kun shoh iltifot qilib oning sarvaqtig‘a kelg‘oni”* deb nomlangan faslidagi

Mehr nili falakdin o‘ldi fosh,

Nil suyidin urdi Yusuf bosh.[1:256]

baytida muallifning yuksak tasviriylik mahorati namoyon bo‘ladi. Baytda quyoshning tongda chiqishi (fosh bo‘lishi) Nil daryosining tubidan bosh ko‘targan Yusuf (a.s.) siymosiga o‘xshatiladi. Mumtoz poetikada quyosh va Yusuf obrazi o‘rtasidagi bog‘liqlik nuri ilohiy va mislsiz go‘zallik ramzidir. Hiloliy bu yerda koinot hodisasi (quyosh chiqishi) va insonga xos holatni bog‘lash orqali dostonning lirik qahramoni – Gado hayotidagi zulmatli kechening yakunlanib, Shoh iltifoti bilan yorug‘lik kelishini bashorat qilmoqda. Bu o‘rinda “Nil” va “Yusuf” so‘zlari o‘zaro tanosub san’atini hosil qilgan.

Asarning didaktik va ijtimoiy-axloqiy yo‘nalishi *“Tamuz havosining sifati va shohg‘a tib bemorlig‘ining oriz bo‘lg‘oni va hukamo muolijasi bila sig‘at topg‘oni”* bo‘limidagi

*Otolarg'a o'g'il bo'lur mahbub,
Ko'r hikoyati Yusuf-u Ya'qub.[1:296]*

baytida yaqqol ko'zga tashlanadi. Muallif ota va farzand o'rtasidagi rishtalarning muqaddasligini isbotlash uchun eng oliy andoza sifatida Yusuf va Yaqub (a.s.) munosabatlariga murojaat qiladi.

Dostonning *"Gadoning daryo kanorida shoh bila ixtilot qilg'oni va shoh anga xotamin bergoni"* qismidagi

*Masnadi Misr qoldi Yusufdin,
Yetti el o'lgoli taassufdin.[1:302]*

baytida esa ijtimoiy fojia va davlatdorlik masalasi ko'tariladi. Hiloliy Yusuf (a.s.)ning Misr taxtidagi hukmronligi va undan keyingi bo'shliqni tasvirlash orqali *komil rahbar va adolatli shoh* g'oyasini ilgari suradi. "Yetti el" (yetti iqlim)ning taassufi – bu shunchaki motam emas, balki jamiyatning ma'naviy yetakchiga bo'lgan ehtiyoji ramzidir.

Doston syujeti rivojida Shohning sahrodan shaharga qaytishi sahnasi

*Bo'ldi go'yoki ko'rguzub javlon,
Yusufi Misr ozimi Kan'on.[1:304]*

misralari orqali ifodalangan. Bu o'rinda Yusufning Misr azizligidan o'z vatani Kan'onga yo'l olishi, adabiyotdagi eng yorqin "visol" va "qayta tirilish" motivi hisoblanadi. Hiloliy bu talmeh orqali Shohning qaytishini xalq uchun bayram va sog'inchning tugashi sifatida mahorat bilan chizib bergan.

Tadqiqotning eng muhim nuqtasi asar yakunidagi

*Yusufoso esang mahi Kan'on,
Qilg'osen oqibat quduqni makon.[1:318]*

baytida namoyon bo'ladi. Ushbu bayt asarning falsafiy xulosasi bo'lib, unda inson hayoti va uning darajasidan qat'i nazar, o'lim haqiqati (quduq / qabr) muqarrarligi uqtiriladi. Yusufning quduqqa tashlanishi hayotidagi birinchi katta sinov bo'lsa, bu yerda "quduq" timsoli foniy dunyodan boqiy dunyoga o'tish eshigi sifatida ma'no kasb etgan.

Xulosa qilib aytganda, Badriddin Hiloliy "Shoh va gado" dostonida Yusuf (a.s.) obrazini shunchaki bezak yoki tarixiy ma'lumot sifatida emas, balki asar g'oyasini – ishq, sadoqat, adolat va hayot zavoli haqidagi qarashlarini tizimli ifodalash uchun asosiy badiiy vosita sifatida qo'llagan. Muallif ushbu talmehlar orqali asar qahramonlarining ruhiy holatlarini umumbashariy va ilohiy qadriyatlar darajasiga ko'taradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бадриддин Ҳилолий. Шоҳ ва Гадо. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – 321 б.
2. Ҳожиаҳмедов А. Шеърӣ санъатлар ва мумтоз қофия. – Тошкент: Шарқ, 1998. – 160 б.
3. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: Шарқ, 1999. – 240 б.
4. Мумтоз адабиёт манбалари луғати. / Тузувчи В.Раҳмонов; масъул муҳаррир Ҳ.Болтабоев. – Тошкент: MUMTOZ SO'Z, 2009. – 432 б.
5. Навоий асарлари луғати. 2-нашри / нашрга тайёрловчи С.Рафиддинов. – Тошкент: Akademnashr, 2023. – 656 б.